

**MELIORATIV KADASTRNI YURITISH VA MONITORING
NATIJJALARI. MELIORATIV KADASTRNING QISHLOQ VA
SUV XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI**

Hasanov X.X.

*"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
Gidrologiya va ekologiya kafedrasida katta o'qituvchisi*

Radjabova M.M.

*"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
Gidrologiya va ekologiya kafedrasida assistenti*

Eshpo'latov J.

*"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Meliorativ
gidrogeologiya yo'nalishi talabasi*

Rajabov O.

*"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi*

Annotatsiya: Hozirda O'zbekiston Respublikasidagi sug'oriladigan yer maydoni 4.3 million hektarni tashkil qiladi. Sug'oriladigan maydonlarda yerlarning meliorativ holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bu sizot suvlardir. Sug'oriladigan maydonlarda yog'in-sochinning kam bo'lishi va aksincha tuproq tarkibidagi namlikning intensiv bug'lanishi yer osti sizot suvlari mineralizatsiyasini doimiy ravishda oshib borishiga olib keladi. Yer osti sizot suvlarining salbiy ta'sirini bartaraf etish yo'li bilan ekin maydonlarida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari kontinental iqlimli mintaqalarning agrar soha rivojlangan hududlarida dolzarb masala hisoblanadi.

Kalit so'zi: yer osti sizot suvlari, yopiq zovur, rel'ef, kollektorlar, yoriq-karst suvlari, artezian suvlari, drenaj suvi, yaylovlarni sug'orish, qishloq xo'jalik suvlari

Ma'lumki Respublikamizda dehqonchilik qilinadigan, sug'oriladigan ekin maydonlarida qishloq xo'jaligidagi yetishtiriladigan ekinlardan olinadigan hosildorlikni oshirib borishda bir qator agrotexnik tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Bunday tadbirlarning asosiylaridan biri bu sug'oriladigan maydonlarning meliorativ holatini baholash yoki meliorativ kadastr yuritish hisoblanadi.

Sug'orma dehqonchilikda qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil olish uchun barcha turdagi agrotexnik tadbirlar o'z muddatlarida, belgilangan meyorlar asosida

bajarilsada, mineral va maxalliy o‘g‘itlar kerakligicha kiritilmasin, sug‘orish ishlari, ekinlarga ishlov berish kabi tadbirlari me‘yorida amalga oshirilmasin ekin maydonlarini meliorativ holati qoniqarsiz bo‘lsa, dehqonchilikda ko‘zlangan marralarga erishish imkoniyati yo‘q.

Har qancha harakat qilinmasin yerlarning meliorativ holati qoniqarsiz bo‘lgan maydonlarda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan olinishi mumkin bo‘lgan hosilning anchagina qismi yo‘qotiladi. Bu maydonlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarinig hosildorligi 35-40 foizgacha, meliorativ holat o‘ta og‘ir maydonlarda esa hatto 50-60 foizgacha kamayib ketadi. Bu degani har gektar ekilgan paxta maydonlaridan 1600-1800klogrammgacha, g‘alla maydonlarining har bir gektaridan3400-3600 klogrammgacha hosil olish imkoniyati boy beriladi.

Sug‘oriladigan maydonlarda meliorativ vaziyatni belgilovchi asosiy omillar, bu yer osti sizot suvlari sathini joylashuvi va ularning minerallik darajasi hamda ekin maydonlarida tuproqning sho‘rlanish darajalari hisoblanadi.

Ko‘rasatib o‘tilgan omillarning meyoriy ko‘rsatgichlardan yuqori bo‘lishi sug‘orma dehqonchilik qilinadigan maydonlarda meliorativ holatning yomonlashuviga olib keladi. Aytib o‘tilgan uchala omillarning sug‘oriladigan maydonlarda har biri alohidayoki ikkalasi birga, ayrim hollarda esa har uchala gidrogeologik meliorativ omillar bir vaqtning o‘zida bir joyda meyoriy ko‘rsatgichlardan yuqori bo‘lishi mumkin. Aynan ana shu maydonlarning meliorativ holati o‘ta og‘ir bo‘ladi va bu ekin yerlarida hatto ekilgan ekin urug‘i unib chiqmasligi ham mumkin.

Shu sababdan ham sug‘oriladigan maydonlarda doimiy ravishda gidrogeologik meliorativ kuzatuv ishlarini muntazam olib borish yo‘lga qo‘yilgan.

Gidrogeologik meliorativ kuzatuvlarning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligida dehqonchilik qilinadigan maydonlarda suv-tuz muvozanatini o‘rganish, meliorativ vaziyatni nazorat qilish, ekin maydonlarida tuproq hosildorligini pasayishiga olib keluvchi omillarni o‘z vqtida aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqib uni amaliyotda bajarilishini tashkil qilish hamda belgilangan tadbirlarni amalga oshirilishini nazorat qilib, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashdagi samaradorligini aniqlab borishdan iborat.

Oldindan sug‘orib kelinayotgan va yangidan o‘zlashtirilib ekin maydonlari toifasiga kiritiladigan sug‘oriladigan maydonlarda meliorativ kadastrning yuritilishi qishloq va suv xo‘jaligida juda muhim ahamiyat kashf etadi.

Meliorativ kadastrni yuritilishi gidrogeologik meliorativ kuzatuvlarning quyidagi asosiy turlaridan foydalanib amalga oshiriladi:

- sug‘oriladigan maydonlarga beriladigan suvlar miqdori va uning minerallikdarajasini gidrometrik kuzatuv nuqtalari orqali oylar kesimida qayd etib borish;

- sugʻoriladigan maydonlar chegarasida meliorativ tarmoqlar orqali chiqib ketadigan drenaj suvlari miqdorini dekadalar kesimida va uning minerallikdarajasini oylar kesimida gidrometrik kuzatuv nuqtalari orqali qayd etib borish;

- sugʻoriladigan maydonlarda yer osti sizot suvlari sathi joylashuvini sugʻoriladigan maydonlarda doimiy ravishdagi oʻrnatilgan kuzatuv quduqlari va peezometrlar orqali dekadalar kesimida qayd etib borish;

- sugʻoriladigan maydonlarda yer osti sizot suvlari sathini maydonlar boʻyicha joylashuvini kuzatuv nuqtalaridan olingan maʼlumotlar asosida yilning 1-aprel, 1- iyul va 1- oktabr holatlarida tuziladigan xaritalar orqali qayd etib borish;

- sugʻoriladigan maydonlarda yer osti sizot suvlarining minerallik darajasini maydonlar boʻyicha joylashuvini kuzatuv nuqtalaridan olingan maʼlumotlar asosida yilning 1-aprel, 1- iyul va 1- oktabr holatlarida tuziladigan xaritalar orqali qayd etib borish;

- sugʻoriladigan maydonlarda tuproqning shoʻrlanish darajasini kuzatuv nuqtalari orqali yilning 1-aprel holatida shoʻr yuvish mavsumidan keyin va 1- oktabr holatida vegetatsiya mavsumi tugagandan keyin ekin maydonlarda tuproqning shoʻrlanish darajasini tuziladigan xaritalar asosida aniqlab borish kabi tadbirlar.

Gidrogeologik meliorativ kuzatuvlar natijasi asosida sugʻoriladigan maydonlarda tuproqning meliorativ holatini baholash va meliorativ holatdan kelib chikib, meliorativ nuqtaiy nazardan qoniqarsiz deb topilgan maydonlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida amalga oshirilishi lozim boʻlgan meliorativ tadbirlar, ularning turlari va quvvatlarini aniqlash uchun sugʻoriladigan maydonlar meliorativ holatining kadastri yuritiladi.

Sugʻoriladigan maydonlarning meliorativ holati kadastri natijalarining taxlili nazorat ostiga olingan sugʻoriladigan maydonlarning tuproq shoʻrlanish darajasi, yer osti suvlari sathini maydonlar boʻyicha joylashuvi va uning minerallik darajasi boʻyicha maydonlar kesimida tarqalganligi toʻgʻrisidagi olingan maʼlumotlarni bir yaxlit xaritada aks ettirish orqali aniqlanadi. Sugʻoriladigan maydonlarning meliorativ holati kadastirining yakuni boʻyicha nazorat ostiga olingan umumiy sugʻoriladigan maydonlarning konturlar kesimida qancha qismi yaxshi, qancha qismi qonikarli va qancha qismi qonikarsiz axvolda ekanligi aniqlanadi.

Asosan meliorativ holati yomon boʻlgan maydonlar alohida nazoratga olinib, murakkab meliorativ vaziyat sodir boʻlish sabablari chuqur taxlil qilinadi va bu yerlarda meliorativ vaziyatni yomonligini har bir kontur kesimida aniq sabablari ochiq qilinadi va aynan qaysi sababga koʻra meliorativ vaziyat yomonlashgan boʻlsa oʻsha kamchilikni bartaraf etish boʻyicha aniq chora tadbirlar dasturi ishlab chiqilishi talab etiladi.

Aytaylik, sug‘oriladigan maydonlarning ma’lum bir konturida yer osti sizot suvlari sathining yuqori joylashganligi sababli meliorativ vaziyat yomonlashgan. Yer osti sizot suvlari sathining yuqorida joylashganligining asosiy sababi bosimli sizot suvlarining sathini sizot suvlari sathidan balandda joylashganligidir. Bu holatda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun ushbu konturda bosimli sizot suvlari sathini pasaytirish talab etiladi. Buning uchun amaliyot qo‘llanib kelinayotgan asosiy meliorativ tadbir tik drenaj quduqlarini qurishdan iborat bo‘ladi.

Sug‘oriladigan maydonlarning meliorativ holatini yomonlashuviga olib keluvchi ko‘plab sabablar mavjud bo‘lib, yuqorida shulardan birini ko‘rsatib, uni bartaraf etish chorasi bayon etildi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. The drip irrigation method is a guarantee of high yields JA Dustov, NS Xusanbayeva, MM Radjabova - IOP Conference Series: Earth and Environmental ..., 2022
2. НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ВЛИЯНИЯ ПОДЗЕМНЫХ ИСТОЧНИКОВ НА ГОДОВОЙ ПРИРОСТ РАСТЕНИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ПРИРОДНЫХ УСЛОВИЯХ ШР Ахмедов, ИН Турсунов, MM Ражабова - Экономика и социум, 2022
3. Sug‘orishda yer osti suvlaridan ratsional va ekologik xavfsiz foydalanishning ilmiy asoslari (kungaboqar misolida)SR Akhmedov, IN Tursunov, MM Rajabova, SH Hakimov - Science and Education, 2022
4. Scientific basis of rational and ecologically safe use of groundwater in irrigation (in the case of sunflower) SR Akhmedov, IN Tursunov, MM Rajabova... - Global Scientific Review, 2022
5. Scientific basis of the effect of groundwater sources on annual plant growth in current natural conditions SR Akhmedov, XT Tuxtaeva, ZU Amanova... - IOP Conference Series: Earth and Environmental ..., 2023
6. Application of drip irrigation technology for growing cotton in Bukhara region В Matyakubov, D Nurov, M Radjabova, S Fozilov - AIP Conference Proceedings, 2023
7. СИСТЕМА ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ РАБОТНИКОВ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕННОМ ПРОЦЕССЕ MM Раджабова, ХХ Ниязов, С Улмасов, А Зулфиёв - Scientific Impulse, 2023
8. ANTHROPOGENIC LANDSCAPES AND PROSPECTS OF ECOTOURISM IN THE AREA OF THE BURGUNDY RESERVOIR. MM Radjabova, NR Davitov, AA Zulfiyev, S Shodiyev - Finland International Scientific Journal of Education ..., 2023

9. Scientific basis of the effect of groundwater sources on annual plant growth in current natural conditions SR Akhmedov, XT Tuxtaeva, ZU Amanova... - IOP Conference Series: Earth and Environmental ..., 2023
<https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1138/1/012034/meta>
10. ЗАПАСЫ ПОДЗЕМНЫХ ВОД БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ММ Раджабова, А Зулфиев, М Эргашев - СОВРЕМЕННАЯ НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ ..., 2023
11. НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ВЛИЯНИЯ ПОДЗЕМНЫХ ИСТОЧНИКОВ НА ГОДОВОЙ ПРИРОСТ РАСТЕНИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ПРИРОДНЫХ УСЛОВИЯХ ШР Ахмедов, ИН Турсунов, ММ Ражабова - Экономика и социум, 2022
12. SUG’ORILADIGAN MAYDONLARDA SUV RESURSLARIDAN (YER OSTI SUVLARIDAN) SAMARALI FOYDALANISHNI ILMIY ASOSLASH (BUXORO VILOYATI) R Mahliyo, A Go'zal - Uz-Conferences, 2023
13. BUXORO VILOYATI YER USTI VA YER OSTI SUV RESURSLARI D Jaxongir, R Mahliyo, C Ravshan, R Nazokat - Uz-Conferences, 2023
14. BUXORO VILOYATI BUXORO TUMANI GIDRODINAMIK HOLATINI YAXSHILASH BO’YICHA TAVSIYALAR T X Toshevna, RM Mahmudovna, S Shodiyor - QISHLOQ XO’JALIGI VA GEOGRAFIYA FANLARI ILMIY ..., 2024
15. THE PRIMARY FEATURES AND INDICATORS OF SUBTERRANEAN WATER RM Maxmudovna, S Shodiyor, E Jo'rabek - PEDAGOG, 2024
16. РЕКОМЕНДАЦИИ ПО УЛУЧШЕНИЮ ГИДРОДИНАМИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ КАРАВУЛБАЗАРСКОГО РАЙОНА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ RM Mahmudovna, A Boburjon... - International journal of scientific researchers (IJSR) ..., 2024